

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” Kuzatuv kengashining

14.11.2024 yildagi 26-sonli yig’ilish

bayoni bilan

TASDIQLANGAN

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
IJRO ORGANI (BOSHQARUVI)
NIZOMI**

Toshkent - 2024 yil

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT
MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATI IJROIYA ORGANI
(BOSHQARUVI) NIZOMI**

I. Umumiy qodalar

- 1.1. Mazkur Nizom “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “Bank”) Boshqaruvining maqomini belgilaydi va uning faoliyatini, a’zolarini tayinlash tartibini, ularning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.
- 1.2. Nizom “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, Bank ustaviga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.3. Bank Boshqaruvi Bankning kollegial ijroiya organi bo‘lib hisoblanadi hamda Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va uning faoliyati natijalari uchun javobgardir.
- 1.4. Bank Boshqaruvi Bankning aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Bank Kuzatuv Kengashiga hisobdordir.
- 1.5. Bank Boshqaruviga Boshqaruv Raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv a’zolari tarkibiga Raisdan tashqari lavozim bo‘yicha Boshqaruv Raisi o‘rnibosarlari, Bankning bosh buxgalteri, shuningdek Bosh Bankning asosiy tarkibiy bo‘linma (departament va mustaqil boshqarma)lari boshliqlari kiradi.

II. Bank Boshqaruvini tashkil qilish tartibi

- 2.1. Bank Kuzatuv Kengashi Bank Boshqaruvining miqdoriy tarkibini, bir kishi boshqaruv vazifalarini ijro eta olishining eng yuqori imkon darajasi, boshqaruv uchun xarajatlarni qisqartirish tamoyillaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Bank boshqaruvi 11 (o‘n bir) a‘zdadan iborat bo‘lib, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi hamda Bank Kuzatuv Kengashining mutlaq vakolatlariga kirdigan masalalardan tashqari, barcha masalalarni yechish vakolatiga ega.
- 2.2. Bank Boshqaruvining miqdoriy va shaxsiy tarkibini tasdiqlash bo‘yicha qarorlar Bank Kuzatuv Kengashi umumiyligi tarkibining oddiy ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.
- 2.3. Bank Boshqaruv a’zolari Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan uch yil muddatga tasdiqlanadi va cheklanmagan marotaba qayta tasdiqlanishi mumkin.
- 2.4. Boshqaruv a’zolarining tayinlanishi:

Boshqaruv Raisi va uning o‘rnibosarlari qonunchilikda belgilangan tartibda Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tayinlanadi. Bank boshqaruvining boshqa a’zolari Bankning tarkibiy bo‘linma rahbarlari yoki malakali mutaxassislari tarkibidan Boshqaruv Raisining tavsiyasiga ko‘ra Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tayinlanadi.
- 2.5. Boshqaruv a’zoligiga nomzodlarni Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan ko‘rib chiqish yakka tartibda nomzod ishtirokida amalga oshiriladi. Bank Boshqaruv a’zoligiga nomzod o‘z tarjimai holidagi Bank Boshqaruvining a’zoligiga to‘sinqinlik

qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni Bank Kuzatuv Kengashi a’zolariga oshkor qilishi shart.

- 2.6. Bank Boshqaruvi a’zoligiga quyidagi shaxslar tayinlanmaydi:
oliy ma’lumoti bo‘lman; yetarli darajada bank qonunchiligi bilimlariga ega bo‘lman; avval qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan; avval bankrotlikka uchragan xo’jalik yurituvchi subektlarda rahbar bo‘lgan bo‘lsa; qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.
- 2.7. Boshqaruv Raisi bilan Bank nomidan mehnat shartnomasini Bank Kuzatuv Kengashi Raisi yoki Kengash vakolat bergen shaxs imzolaydi. Boshqaruv Raisi o‘rinbosarları va Boshqaruv a’zolari bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan Boshqaruv Raisi imzolaydi.
- 2.8. Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a’zolari bilan mehnat shartnomasi 3 (uch) yil muddatga tuziladi. Bank Boshqaruv Raisi bilan mehnat shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish va (qayta tuzish) yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to‘g‘risida har yili Aksiyadorlar umumiy yig’ilishi tomonidan qaror qabul qilinadi.
- 2.9. Boshqaruv a’zolari o‘z lavozim yo‘riqnomalarida belgilab berilgan vakolatlar, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi qarorlari va Boshqaruv Raisining ko‘rsatmalari doirasida ish tutadi.
- 2.10. Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a’zolariga tolanadigan oylik ish haqning eng yuqori miqdori hukumat qarorlariga muvofiq belgilanadi hamda “Boshqaruv a’zolariga haq tolash togrisidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi.adi. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan Boshqaruv Raisi va Boshqaruv raisi orinbosarlariga tolanadigan oylik ish haqining alohida miqdorlari belgilanishi mumkin.
- 2.11. Boshqaruv a’zoligiga nomzodlar ko‘rib chiqilayotganda aksiyadorlar umumiy yig’ilishi yoki Bank Kuzatuv Kengashi majlisida nomzodning o‘zi qatnashishi mumkin.
- 2.12. Bank Kuzatuv Kengashi Bank Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a’zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini, agar ular Bank Ustavini qo‘pol tarzda buzishga yo‘l qo‘yan bo‘lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.
- 2.13. Boshqaruv a’zosi Ustav, shuningdek mehnat shartnomasi shartlarini buzganligi uchun bir vaqtning o‘zida mehnat shartnomasi bekor qilingan holda egallab turgan lavozimidan chaqirib olinishi mumkin. Bank Boshqaruvi a’zosini chaqirib olish va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi qaror ko‘pchilik ovoz bilan Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilinadi.
- 2.14. Bank Boshqaruvining Raisi Boshqaruv tarkibiga qo‘srimcha nomzodlar kiritish yoki Bank faoliyatidagi o‘zgarishlar munosabati bilan uning miqdoriy tarkibini qisqartirish va boshqa holatlar yuzasidan hamda Boshqaruv tarkibidan ayrim a’zolarni chiqarish bo‘yicha takliflar kiritish huquqiga ega.
- 2.15. Bank Boshqaruvining a’zosini vazifasidan ozod qilish Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan qo‘yidagi hollarda amalga oshiriladi:
 - 2.15.1.Ixtiyoriy ravishda o‘z vakolatini topshirganda;

- 2.15.2. Bank Boshqaruving a'zosi mazkur Nizomda bayon qilingan o'z vakolat va majburiyatlarini bajarmaganda;
- 2.15.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning tegishli ko'rsatmasi olinganda;
- 2.15.4. Qasddan sodir etilgan g'arazli jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi to'g'risida ma'lumot olinganda;
- 2.15.5. Qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

III. Bank Boshqaruving vakolatlari

- 3.1. Bank Boshqaruving vakolatlariga Bank joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki Bank Kuzatuv Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Boshqaruv Bank ustavi asosida faoliyat olib boradi hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tashkil etadi.
- 3.2. Bank Boshqaruvi quyidagi masalalar yuzasidan mustaqil ravishda qaror qabul qilishga vakolatli:
 - 3.2.1. Bankning nizom, tartib, qoida va yo'riqnomalar shaklidagi ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish;
 - 3.2.2. Bank tarmoqlari ("Bo'lim", "bank xizmatlari ofisi", "minibank", "chakana xizmatlar markazi", "bank xizmatlari markazi" va boshqa so'z va so'z birikmalari qo'llanilgan holda turli xil nomlanishi mumkin)ni ochish, yopish va manzili o'zgarishida, shuningdek, ularning nizomlarini ishlab chiqish va o'zgartirishlar kiritishga ruxsat berish;
 - 3.2.3. Yangi bank xizmati turlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish;
 - 3.2.4. Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini bank tizimida ko'rib chiqilishi yakunlari yuzasidan hisobotlarni tasdiqlash;
 - 3.2.5. Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan ruxsat berilgan masalalar yuzasidan xodimlarni rag'batlantirishning aniq mexanizm va tartiblarini amaliyotga joriy qilish;
 - 3.2.6. O'z vakolati doirasida kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek kredit liniyalarini jalb qilish haqida qarorlar qabul qilish;
 - 3.2.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga asosan, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan Boshqaruvga bevosita yuklatilgan vazifalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 3.3. Bank Boshqaruv quyidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqib, ularni Bank Kuzatuv Kengashiga va (yoki) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tasdiqlash yoki kelishib olish uchun kiritadi:
 - 3.3.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy xujjatlari va Bankning kredit siyosatida belgilangan vakolatlar doirasida Bank Kuzatuv Kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan kreditlash, aktiv va passivlarni boshqarish, investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bitimlarni imzolash;
 - 3.3.2. Bank siyosatlarini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;
 - 3.3.3. Ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish;

- 3.3.4. Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar berish;
 - 3.3.5. E’lon qilingan Aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;
 - 3.3.6. Bosh bank va Bankning hududiy filiallari (tarmoqlari) binosini sotish, kapital va joriy ta’mirlash masalalari;
 - 3.3.7. Bankning yillik hisobotlari, buxgalteriya balanslari, foyda va zararlar haqida hisobotlar, foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi;
 - 3.3.8. Aksiyalar bo‘yicha yillik va oraliq dividendlarning hajmi va ularni to‘lash;
 - 3.3.9. Bankning joriy faoliyati yakunlari yuzasidan tayyorlanadigan choraklik, olti oylik va yil yakunlari natijalari haqidagi hisobotlar;
 - 3.3.10. O‘z Aksiyalarini sotib olish, Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog’ozlarni harid qilishda aksiyadorlarning imtiyozli huquqidan foydalanmaslik haqida qaror qabul qilish bo‘yicha ularni bo‘lish va jamlash (ularni ochiq, imzolash vositasida joylashtirish hollarida), shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqida;
 - 3.3.11. Bankning obligatsiyalari va boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish;
 - 3.3.12. Bank mulkining bozor qiymatini aniqlash (shu jumladan mulkni garovga berishda);
 - 3.3.13. Bankning zaxira va boshqa fondlarini ishlatish;
 - 3.3.14. Mijozlar va boshqa banklar zararidan qaytarilishiga umid bo‘lmagan qarzlarni Bank balansi hisobidan chiqarish;
 - 3.3.15. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari muvofiq, Bank Aksiyadorlarining umumiyligi yig’ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi haqidagi Nizomlarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish loyihasini;
 - 3.3.16. Bank Ichki audit, Ichki nazorat Departamentlari, Komplaens nazorat bloki, Xatarlarni boshqarish Departamenti Nizomlari loyihasi;
 - 3.3.17. Ko‘chmas mulklarni baholash masalalari;
 - 3.3.18. Bankning Audit hamda Xatarlarni boshqarish Qo‘mitalari to‘g‘risidagi nizomlar loyihalari;
 - 3.3.19. Bank tarmoqlarini (filiallarni) tashkil etish, qayta tashkil etish yoki tugatish, Bank vakolatxonalarini ochish, ular haqida nizomlar loyihasi;
 - 3.3.20. Sho‘ba banklar va o‘ziga tobe xo‘jalik jamiyatlarni tashkil etish.
 - 3.3.21. Bankning yillik biznes-rejsasi loyihasini.
- 3.4. Bank Kuzatuv Kengashi va Aksiyadorlarning umumiyligi yig’ilishi vakolatiga kiritilgan barcha masalalar, odatda, dastlabki tarzda Bank Boshqaruvi tomonidan ko‘rib chiqilishi va keyinchalik tasdiqlash uchun tegishliligi bo‘yicha Bank Kuzatuv Kengashiga yoki Aksiyadorlarning umumiyligi yig’ilishiga kiritilishi kerak, Bank Kuzatuv Kengashi va Aksiyadorlarning umumiyligi yig’ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

IV. Bank Boshqaruvining majburiyatları

- 4.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari hamda Bank Ustavi va ichki me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga rioya qilinishini nazorat qilish;
- 4.2. Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilingan Bankning barcha siyosatlarini amaliyatga tatdbiq qilinishini tashkil qilish;
- 4.3. Bank tizimida kreditlash bilan bog’liq operatsiyalarning O‘zbekiston

- Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Bankning Kredit siyosati va boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish;
- 4.4. Bank Boshqaruvining faoliyati Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida, Ustav kapitalini o'zgartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarishda, dividend siyosati bo'yicha, aksiyadorlar bilan o'zaro aloqa jarayonida aksiyadorlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlashi zarur.
 - 4.5. Bank Boshqaruvi qat'iy tartibda Bank Kuzatuv Kengashi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hal etish uchun kiritilgan masalalarni oldindan ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli materiallar va qaror loyihamalarini tayyorlaydi. Bank Kuzatuv Kengashi majlisida va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Boshqaruv Raisi yoki vakil qilingan Bank Boshqaruvi a'zosi Bank Boshqaruvining nuqtai nazari haqida ma'ruza qiladi.
 - 4.6. Bankning sarmoyasini saqlash va uni bank operatsiyalarining miqyosi va tavakkal darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida, Bank Boshqaruvi tomonidan Bankni sarmoyalash bo'yicha quyidagi choralarни ko'radi:
 - 4.6.1. Bankning sho'ba va o'ziga qarashli jamiyatlarni tashkil etish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish uchun Bank Kuzatuv Kengashi kiritish;
 - 4.6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hajmdagi ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni tashkil etish;
 - 4.6.3. Bank tavakkalchilik darajasini ta'minlash;
 - 4.6.4. Bank Aksiyalarini belgilangan tartibda joylashtirish;
 - 4.6.5. Bankning umumiy zaxirasini yetarli darajada saqlab turish;
 - 4.6.6. Bankning biznes-rejasi amalga oshirilishini ta'minlash va har chorakda Bank Kuzatuv Kengashiga uning bajarilishi haqida hisobot berish.

V. Bank Boshqaruvining huquqlari:

- 5.1. Bank boshqaruvi quyidagi huquqlarga ega:

 - 5.1.1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyada ko'zda tutilgan operatsiyalarini amalga oshirish;
 - 5.1.2 Bank mulkini va uning sarmoyasini boshqarish;
 - 5.1.3 Bosh bankning tarkibiy bo'linmalar, boshqarmalar, filiallar, markazlar, ofislar, bo'lim va vakolatxonalarning tarkibiy bo'linmalarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish;
 - 5.1.4 Bosh bankning tarkibiy bo'linmalar hamda filiallar, bo'limlar va vakolatxonalar xodimlarining g'ayri qonuniy xatti-harakatlari ustidan aksiyadorlar va mijozlarning shikoyatlari va takliflarni ko'rib chiqish;
 - 5.1.5 Bank va uning boshqarmalari, filialari, markazlari, ofislar, bo'limlari faoliyat yo'nalishlari bo'yicha moliya-tijorat faoliyati natijalarini ko'rib chiqish;
 - 5.1.6 Depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish, kreditlash, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmatini ko'rsatish, tashqi iqtisodiy faoliyat, banklararo shartnomalarni imzolash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish;
 - 5.1.7 Bank xizmatlarining yangi turlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;
 - 5.1.8 Auditorlik tekshiruvlari, taftishlar hamda Bankning tarkibiy bo'linmalar hisobotlarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish;
 - 5.1.9 Bank va mijozlarning manfaatlarini hisobga olgan holda aktivlar va passivlar bo'yicha operatsiyalarning foiz stavkalarini tartibga solish;

- 5.1.10 Majburiyatlar, kredit xizmatini ko'rsatish, pul va to'lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiyl tartibini belgilash;
- 5.1.11 Bosh Bankning tarkibiy bo'linmalari Nizomlari hamda boshqarmalar, filiallar, markazlar, ofislar, tarkibiy bo'linmalarining Namunaviy nizomlarni tasdiqlash;
- 5.1.12 Bank tomonidan investitsiya kiritilgan sho''ba korxonalarda, aksiyadorlik jamiyatlarida, qo'shma korxona va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda Bankning vakolatini amalga oshirish va mansaatlarini himoya qilish;
- 5.1.13 Vakolatxonalar, bo'limlar, bosh ofis bo'linmalari va Bank filialari, boshqarmalar, markazlar, ofislar rahbarlarini lavozimiga tayinlash, xodimlarni tanlash, tayyorlash va foydalanish, mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibini belgilash;
- 5.1.14 Boshqarmalar, filiallar, markazlar, ofislar tashkiliy tuzilmasini belgilash;
- 5.1.15 Homiylik va xayriya yordami ko'rsatish masalasini ko'rib chiqish;
- 5.1.16 Aksiyadorlar umumiyl yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashining vakolatiga kirmaydigan Bank faoliyatiga doir boshqa masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish.
- 5.2. Bank Boshqaruvi quyidagi bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:
- 5.2.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan o'rnatilgan vakolat doirasida mulkni bevosita yoki bilvosita begonalashtirish bilan bog'liq bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir qancha bitimlarni tuzish;
- 5.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustaviga muvofiq affillangan shaxslar bilan bitim tuzish masalalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqish va Bank Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun kiritish.
- 5.2.3. Bunday bitimlarni tuzish to'g'risida Bank qarorlarini qabul qilish bo'yicha Bank Kuzatuv Kengashiga kiritilgan tavsiyalar Bank Boshqaruving affillanmagan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bunday tavsiyalarsiz bitim tuzish to'g'risidagi takliflar Bank Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritilmaydi.
- 5.3. Boshqaruv quyidagi xujjatlarni saqlashi zarur:
- 5.3.1. Bank ustavi, ustavga kiritilgan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, davlat tomonidan ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma, bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziyalar;
- 5.3.2. Bank balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar;
- 5.3.3. Aksiyadorlar umumiyl yig'ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar;
- 5.3.4. Bank tarmoqlari, filial va vakolatxona to'g'risidagi Nizom;
- 5.3.5. Yillik moliyaviy hisobot;
- 5.3.6. Aksiyalar emissiyasi risolasi;
- 5.3.7. Buxgalteriya hisobi hujjatları;
- 5.3.8. Tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobot hujjatları;
- 5.3.9. Aksiyadorlar umumiyl yig'ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi majlislarining bayonnomalari;
- 5.3.10. Aksiyalar soni va turi ko'rsatilgan holda Bankka aloqador (affillangan) shaxslarning ro'yxatlari;
- 5.3.11. Audi'rlik xulosasi;
- 5.3.12. Qonunchilikda, ustavda, Bank boshqaruvi organlarining qarorlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar.

VI. Bank Boshqaruvi Raisining huquq va majburiyatlari

- 6.1. Bank Boshqaruvi Raisi Bankning oliv mansabdor shaxsi hisoblanib, qonunchilik, Bank Ustavi, mazkur Nizom va Bank Kuzatuv Kengashining unga bergen vakolatlariiga muvofiq, Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bank Boshqaruv Raisi Bank Kuzatuv Kengashining faoliyatida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi.
- 6.2. Bank Boshqaruvining Raisi quyidagi huquqlarga ega:
 - 6.2.1. Bank nomidan hujjatlarni imzolash;
 - 6.2.2. Bank nomidan ishonchnomasiz harakat qilish, hisob varaqlarni ochish, bitimlarni amalga oshirish, shartnomalarni imzolash, ishonchnomalar berish, O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida davlat, huquqni muhofaza qilish, jamoat organlari, banklar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan amalga oshiriladigan munosabatlarda Bank nomidan ish ko‘rish;
 - 6.2.3. Bankning barcha xodimlari bajarishi zarur bo‘lgan Bank faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha buyruq va farmoyishlar chiqarish;
 - 6.2.4. Bank Boshqaruvi Raisining o‘rinbosari, Boshqaruv a’zosi, bosh buxgalter, Bank hududiy bo’limlari rahbarlari bilan Bank nomidan mehnat shartnomasini imzolaydi;
 - 6.2.5. O‘z o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifa va vakolatlarni taqsimlash;
 - 6.2.6. O‘z vakolatiga kiruvchi ayrim masalalarni hal vakolatini etishni o‘zining o‘rinbosarlariga, Boshqaruv a’zolariga, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga topshirish;
 - 6.2.7. Bankning shtat jadvalini tasdiqlash, xodimlarning lavozim maoshlarini belgilash;
 - 6.2.8. Bank xodimlarining lavozim maoshlariga rag’batlantirish to‘lovlarini va ustamalar belgilash;
 - 6.2.9. Xodimlarni ishga qabul qilish va bo‘shatish, ular bilan mehnat shartnomalarini imzolash;
 - 6.2.10. Bank xodimlarini rag’batlantirish masalalarini hal etish, intizomiy jazo choralarini qo‘llash.
- 6.3. Bank Boshqaruvi Raisining majburiyatlari:
 - 6.3.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilgan holda Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
 - 6.3.2. Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi qarorlarining ijrosini tashkil etish;
 - 6.3.3. Bank Kuzatuv Kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishiga Bank faoliyati to‘g‘risida hisobotlarni taqdim etish;
 - 6.3.4. Bank tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash;
 - 6.3.5. Bankni rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan miqdorda foyda olish, ijtimoiy masalalarni hal etish va Aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash;
 - 6.3.6. Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, ularning ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;
 - 6.3.7. Bank faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta’minlash;
 - 6.3.8. Bankning buxgalteriya hisobi va hisobotining yetarli va ishonchli holatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank va tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

- 6.3.9. Aksiyadorlarga va ommaviy axborot vositalariga e'lon qilishlari uchun Bank faoliyati haqidagi moliya hisobotlarini taqdim etish;
 - 6.3.10. Bank Kuzatuv Kengashi, Taftish komissiyasi yoki auditor talabiga binoan Bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etish;
 - 6.3.11. Davlat statistika hisobotini tegishli organlarga to'la va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;
 - 6.3.12. Bank va mijozlarining bank yoki tijorat sirini o'zida mujassamlashtirgan axborotlarini Bank xodimlari tomonidan sir saqlanishini ta'minlash;
 - 6.3.13. Bankni malakali xodimlar bilan ta'minlash, ularning bilimlari, malakalari, tajriba va qobiliyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rish;
 - 6.3.14. Mehnat intizominining saqlanishini ta'minlash;
 - 6.3.15. Bank xodimlarining ijtimoiy kafolati va mehnatni muhofaza etish talablariga rioya qilish;
 - 6.3.16. Bank Boshqaruvi a'zolarining jamoa muzokaralarida ishtirok etishini ta'minlash. Jamoa shartnomasi va bitimlarini tuzishda ish beruvchi sifatida ishtirok etish. Jamoa shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish;
 - 6.3.17. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashiga Bank faoliyati to'g'risida belgilangan muddatlarda hisobot berish;
 - 6.3.18. Aksiyadorlarning amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ma'lumotlarni olishlari, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlarni hisoblash va to'lash bo'yicha huquqlariga rioya etish.
- 6.4. Boshqaruv Raisi Bankka yuklatilgan vazifalarning bajarilishi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumatning qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari talablarining, Bankning shartnomalar bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgardir.
 - 6.5. Bank Boshqaruvi Raisining huquq va majburiyatlari u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilab quyiladi.
 - 6.6. Bank Boshqaruvining Raisi o'z joyida bo'lmagan hollarda, uning birinchi o'rinosi, u ham bo'lmagan taqdirda, Rais o'rinoslaridan biri Boshqaruv Raisining buyrug'i bilan Bank Boshqaruvi Raisi vazifasini vaqtincha bajaradi.

VII. Bank Boshqaruvi a'zolarining huquq va majburiyatlari

- 7.1. Boshqaruv a'zolari quyidagi huquqlarga ega:
- 7.1.1. Boshqaruv majlisida shaxsan ishtirok etish, muhokama etilayotgan masala bo'yicha reglamentda ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish, o'z qarashlarini himoya qilish;
- 7.1.2. Muayyan davr mobaynida Bank tuzilmalari faoliyatining natijalari to'g'risida to'liq va ishonarli axborotlar olish;
- 7.1.3. Bank Boshqaruvi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha Boshqaruv yig'ilishida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritish;
- 7.1.4. Bank Boshqaruvining faoliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajargani uchun mehnat shartnomasiga muvofiq muayyan mukofot olish;

- 7.2. Bank Boshqaruvi a'zolari quyidagi majburiyatlarga ega:
- 7.2.1. Bank va uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida harakat qilish;
 - 7.2.2. Bank obro'si, uning rivojlanishi va moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;
 - 7.2.3. O'z xizmat mavqeidan vijdonan, hamda Bankning ustavda yozilgan vazifalarini yaxshi bajarish yo'lida foydalanish;
- 7.3. Bank Boshqaruvi, Kuzatuv Kengashi, auditor e'tiboriga quyidagi ma'lumotlarni yetkazish:
- 7.3.1. Mustaqil yoki o'ziga qarashli shaxs (shaxslar) orqali ovoz beruvchi Aksiya (ulush, pay)larning 10% va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxslar to'g'risida;
 - 7.3.2. Boshqaruv organlarida o'zlari rahbarlik lavozimlarni egallab turgan yuridik shaxslar to'g'risida;
 - 7.3.3. Bankning affillangan shaxslari bilan tuzilishi taxmin qilinadigan yoki ularga ma'lum bitimlarda affillangan shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan bitimlar to'g'risida.
- 7.4. Bank bilan bitim masalasi hal qilinayotganda bu bitimda o'zining affillangan shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lsa, Bank Boshqaruvi majlisida va Aksiyadorlarning umumiylig'ishida mazkur masalani hal etish va ovoz berishda qatnashmaslik.
- 7.5. Boshqaruv Raisi Bank Boshqaruvining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha majburiyat va vakolatlarni Boshqaruv a'zolari o'rtaida taqsimlaydi.
- 7.6. Bank Boshqaruvi a'zolarini o'z vazifalarini ijro etishlari bilan bog'liq harajatlarni kompensatsiyalash Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilanadi va mehnat shartnomasida ko'rsatib o'tiladi.

VIII. Bank Boshqaruvining Regamenti

- 8.1. Bank Boshqaruvi majlislari ish rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Boshqaruv majlislari Boshqaruv Raisi yoki Boshqaruvning kamida 3 a'zosining talabiga binoan chaqiriladi. Zaruriyat tug'ilganda, Boshqaruv Raisi navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.
- 8.2. Boshvaruv majlislarmni Boshqaruv Raisi, u bo'lmagan taqdirda uning o'rindbosarlaridan biri boshqaradi.
- 8.3. Boshqaruv majlislari, odatda, yopiq holda o'tkaziladi. Majlisda ishtirok etuvchilarni Boshqaruv Raisi belgilaydi.
- 8.4. Boshqaruv uning majlisida Boshqaruv a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishga xaqli. Qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda, Boshqaruv Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.
- 8.5. Boshqaruv a'zosi qabul qilingan qarordan norozi bo'lsa, bu haqda Bank Kuzatuv Kengashiga ma'lum qilishga haqli.
- 8.6. Boshqaruv faoliyatining rejali bo'lishini ta'minlash maqsadida Bank tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari Boshqaruv majlisida ko'rib chiqilishi talab etiladigan masalalarni muddatidan avval belgilashlari hamda Bank Boshvaruvi muhokamasiga

kiritish uchun takliflarni Bank Ijro apparatiga taqdim etishlari shart. Takliflarda masalaning mohiyati, materialni tayyorlash uchun javobgar shaxs, ko'rib chiqish muddati ko'rsatilishi lozim.

- 8.7. Boshqaruv majlisining kun tartibi Bank Ijro apparati tomonidan tuziladi. Masalani kun tartibiga kiritish uchun quyidagilar asos bo'ladi:
 - 8.7.1. Boshqaruvning ish rejasи;
 - 8.7.2. Boshqaruv Raisining topshiriqlari;
 - 8.7.3. Boshqaruv a'zolarining tashabbuskor takliflari;
 - 8.7.4. Ichki audit, ichki nazorat departamenti va komplaens nazorat bloki rahbarining taklifi;
 - 8.7.5. Bank tashqi auditorining takliflari.
- 8.8. Bank Boshqaruvining navbatdagi majlisi kun tartibiga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish, rejadagi masalalarni ko'rib chiqish muddatlarining o'zgartirilishi yoki ularning ko'rib chiqilishini bekor qilishga faqat Boshqaruv Raisining yozma ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.
- 8.9. Bank Boshqaruvi tomonidan ko'rib chiqilishi uchun Bank Boshqaruvi muhokamasiga taqdim etilayotgan masalani tayyorlashga mas'ul mansabdar shaxs qaror loyihasi, ma'lumotnomasi va unga zarur boshqa materiallarni kamida 5 kungacha muddatda Bank Ijro apparatiga topshirishi shart. Bank Boshqaruvi majlisi muhokamasiga taqdim etilayotgan takliflar iqtisodiy va huquqiy asosga ega va tegishli xizmatlar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.
- 8.10. Boshqaruv majlisi bayonnomasida ko'rilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar yozib boriladi. Kun tartibidagi har bir masala bo'yicha ovoz berish natijalari ko'rsatiladi. Majlis o'tkazilgan joy va sana, Boshqaruv a'zolaridan kim raislik qilganligi va ishtirok etganligi, muhokama qilinayotgan masala yuzasidan so'zga chiqqanlar albatta ko'rsatiladi, majlisga taklif etilganlar sanab o'tiladi. Bank yoki tijorat siri hisoblangan masalalar bo'yicha tegishli yozuvlar kiritiladi.
- 8.11. Bayonnomaga majlisga Raislik qiluvchi, Boshqaruv a'zolari va Boshqaruv kotibi imzo chekadilar. Bayonnomada yozilgan qarordan norozi bo'lgan Boshqaruv a'zosi unga o'zining alohida fikrini ilova qilishi mumkin.
- 8.12. Boshqaruv qarorlari loyihalarini majlisda qilingan taklif va mulohazalarni hisobga olib, qayta ishslash uchun raislik qiluvchi masalani ko'rib chiqishga kiritgan tegishli tuzilmalarga topshiriqlar beradi va ularni qayta ishslash muddatlarini belgilaydi. Agar mazkur muddatlar maxsus belgilanmagan taqdirda, loyihalarni qayta ishslash majlisdan keyingi ikki kun davomida amalga oshiriladi. Boshqaruv a'zolarida qaror loyihasi bo'yicha turli qarashlar va mulohazalar bo'lmasa, u muhokama etilmasdan qabul qilinishi mumkin.
- 8.13. Bank Boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini Boshqaruv kotibi olib boradi. Bayonnomaga majlis o'tgach, 5 ish kunidan kechikimay tuziladi.
- 8.14. Bank Boshqaruvi majlislari bayonnomalarining asl nusxasi doimiy saqlanadigan hujjat hisoblanadi va u rasmiy lashtirilgach, arxivga topshirilgunga qadar Bank Ijro Apparatida saqlanadi.
- 8.15. Boshqaruv majlisi kun tartibiga kiritilgan masalalarga mas'ul bo'lgan Bankning Bosh ofisi tarkibiy bo'linmasi Bank Boshqaruvi bayonnomasining ijrochisi etib belgilanadi (agar qarorning o'zida boshqa holat ko'zda tutilmagan bo'lsa). Qarorning qanday bajarilayotganligi to'g'risida Bank Boshqaruvi Raisining tegishli o'rinoslariga axborot berib turiladi.
- 8.16. Zarur hollarda Boshqaruv qarorini ijro etish muddati Bank Boshqaruvi Raisining

ruxsati bilan belgilangan muddat tugashiga kamida 3 kun qolganda uzaytirilishi mumkin.

- 8.17. Bank Boshqaruvi qarorlarining bajarilish qismida ijro intizomining holati to‘g‘risida axborot yig‘ish va umumlashtirish Boshqaruv kotibiga yuklatiladi. Qarorda belgilangan topshiriqlarni ijro etish muddati tugagach hamda chorakda kamida bir marta, Bank Bosh ofisi tarkibiy bo‘linmalari Boshqaruv kotibiga keyinchalik Boshqaruv Raisiga yetkazish uchun qabul qilingan qarorlar ijrosi to‘g‘risida axborot taqdim etadilar. Zarur hollarda Bank Boshqaruviga tegishli qarorlarni nazoratdan olish yoki ularni o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida takliflar kiritiladi.
- 8.18. Boshqaruv majlisining bayonnomasidan ko‘chirmalar quyidagi hollarda taqdim etiladi:
 - 8.18.1. Bank Kuzatuv Kengashi va Taftish komissiyasi raislariga ularning so‘roviga binoan majburiy tartibda;
 - 8.18.2. Bankning boshqa mansabdor shaxslari va auditor (tashqi auditormi?) so‘roviga binoan faqat Bank Boshqaruvi Raisining ruxsati bilan; amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxs va organlarga (shu jumladan davlat organlariga).

IX. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolarining javobgarligi

- 9.1. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari Bank oldida qonunchilikka va Bank Ustaviga muvofiq qabul qilayotgan qarorlar uchun javobgardirlar.
- 9.2. Ovoz berishda qatnashmagan yoki bankka ziyon yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergen Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari javobgarlikdan ozod etiladilar.
- 9.3. Agar Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari bitimdan moliyaviy manfaatdor bo‘lgan taqdirda, u qaror qabul qilingunga qadar o‘zining manfaatdorligi to‘g‘risida xabar berishga majbur va natijada ovozga qo‘yilganda qatnashmaydi.
- 9.4. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari xizmat mavqei imkon beruvchi huquqlardan yuridik va jismoniy shaxslarning maqsad va manfaatlari yo‘lida foydalanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 9.5. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari Bank mol-mulkidan shaxsiy manfaat ko‘rish maqsadida faoliyat olib borishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 9.6. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari faoliyati Bankka mijozlarga xizmat ko‘rsatishda qiyinchilik tug‘diruvchi, boshqa yuridik shaxslar ta’sis etish va ta’sis etishda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.
- 9.7. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari lavozimga tayinlanish jarayonida shu kabi korxonalardagi ishtirokini to‘xtatishi va bu haqda Bank Kuzatuv Kengashiga xabar berishi lozim.
- 9.8. Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari Bank va uning aksiyadorlari oldida o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazgan zararlarni to‘liq hajmda qoplash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustaviga muvofiq, Bankka yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplash bo‘yicha javobgardirlar.
- 9.9. Hammasi bo‘lib bir foizdan kam bo‘lmagan bankning joylashtirilgan oddiy aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Bankka yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan Boshqaruv a’zosi ustidan da’vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.